

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY, MA'NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOTI

*Xalilova Gulasal Bahodirjon qizi
Furqat tumani kasb- hunar maktabi Tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ma'naviy va tarixiy merosning tiklanishi, madaniyat va san'at rivojlanishi xususida fikr bayon etilgan.

Kalitso'zlar: Mustaqillik, suverenitet, buyuk siymolar, ma'naviyat, madaniyat, qadriyatlar, urf-odatlar, san'at.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtida ma`naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga etkazish borasida keng ko`lamda faoliyat olib borilmoqda. Respublika Prezidenti I.A. Karimov ta`kidlab o`tganidek, ma`naviyatning mohiyati shunchalik kengki, uni o`lchab ham, poyoniga etkazib ham bo`lmaydi. U inson uchun butun bir olamdir. Jamiyatimiz hayotida ma`naviy kamolotni tezlashtirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, milliy qadriyatlarni o`rganish mustaqillikni mustahkamlashning asosiy vazifalaridan biridir.

Hayotimizda ma`naviy kamolotni rivojlantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda-ajdodlarimizning bizgacha etib kelgan boy madaniy meroslarini o`rganish ham katta o`rin egallaydi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qadriyatlar, urf-odatlar, buyuk ota-bobolarimizning bizga qoldirgan meroslarini o`rganish va tarqib etish uchun keng yo`llar ochildi. Bu boradagi tadbirlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq amalga oshirila boshladi.

Madaniy-ma`rifiy ishlarning rivojlanishi uchun davlat tomonidan katta mablaqlar ajratildi. O'zbekistondagi barcha davlat teatrлari, madaniyat uylari, san`at oliy o`quv yurtlari, folklor-etnografik guruhlar madaniyat o`choqlariga aylanib qoldi. Teatr sahnalarida yangi zamonaviy spektakllar qo`yila boshlandi. MDO` dagi davlatlar ilan ijodiy hamkorlik yo`lga qo`yildi, turli xalqaro anjumanlar o`tkazildi. Badiiy adabiyotda partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazaridan yondoshishga chek qo`yildi. Bahovuddin Naqshband, Feruz, Xo`ja Ahror, Cho`lpon, Fitrat kabi allomalarining nomlari tiklanib, asarlari chop etildi. 1991 yili buyuk alloma, qazal mulkinining sultonı Alisher Navoiy yubileyini o`tkazish katta voqeа bo`ldi. Bu tantanaga baqishlanib Respublikamizda shoirning asarlari nashrdan chiqarildi. 1994 yil Mirzo Uluqbek tavallud topgan kunining 600 yilligi keng ko`lamda, jahon miqyosida nishonlandi. YuNESKO ning Parijdagi qarorgohida yubileyga baqishlangan haftalik va unga ko`rgazma ochildi. Mustaqillik yillarida buyuk sohibqiron Amir Temurning 660 yilligi

bo`lib o`tdi. YuNESKO tomonidan 1996 yil «Amir Temur yili» deb e`lon qilindi. Shu yili YuNESKO ning Parijdagi qarorgohida «Temuriylar davri, fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi» mavzuida anjuman va unga baqishlangan ko`rgazma ochildi. Mamlakatimizda «Temuriylar tarixi davlat» muzeyi, Amir Temur nomi berilgan boqlar, ko`chalar barpo etildi.

Respublikamizda bizgacha etib kelgan boy meroslarni o`rganish, milliy o`zlikni anglash, ma`naviy qadriyatlarni rivojlantirishga katta e`tibor berilmoqda va ularga nisbatan xalqimizning chuqur hurmat va ehtiromi ko`rsatilmoqda. So`nggi yillarda tashkil etilgan «Oltin meros» jamqarmasi, Abdulla qodiriyligi nomidagi «Meros» nashriyotlari keng miqyosda ma`naviy-ma`rifiy ishlarni olib bormoqda.

Islom olamining allomalari Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmudaz Zamahshariyning 920 yilligi, Najmuddin Kubroninng 850 yilligi, Bohovuddin Naqshbandiyning 675 yilligi keng ko`lamda nishonlandi. Ularning boy asarlari nashrdan chiqarildi. Barcha viloyatlar va shaharlarda har yili Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy larga baqishlanib kechalar o`tkazildi, Jaloliddin Manguberdining 800 yillik tavalludiga, «Alpomish» dostonini yaratilishining 1000 yilligiga baqishlangan turli kechalar, bahslar tashkil etildi.

Ma`naviy hayotni takomillashtirish borasida 1994 yil O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ma`naviy qadriyatlarni o`rganish va uni takomillashtirish borasida «Ma`naviyat va ma`rifat» jamoatchilik markazini tuzish haqida farmon e`lon qilindi. Markaz tomonidan Imom al Buxoriyning yubileyiga baqishlab, qur`oni karimdan keyin ikkinchi o`rinda turadigan «Al-Jome`, as-Sahiyh» (Ishonarli to`plam), «Al-adab, as-mufrad» (Adab durdonalari) o`zbek tiliga tarjima qilinib, nashrdan chiqarildi. 1998 yili Imom al Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Ahmad al Farqoniy tavalludining 1200 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi. Yubileylar munosabati bilan allomalar hayotiga baqishlangan ilmiy anjumanlar va badiiy ko`rgazmalar ochildi. Bularning barchasi O`zbekistonda chinakam milliy qadriyatlarni tiklash uchun yuritilayotgan katta ishlardan dalolat beradi.

Ayniqsa, al Buxoriy xalqaro jamqarmasining ochilishi katta voqeа bo`ldi. Respublikamiz Prezidenti Imom al Buxoriyning, Ahmad al Farqoniyning mo`tabar nomlarini tiklash, xalqimiz, qolaversa, butun dunyo musulmonlariga qaratilgan shaxsiy tashabbusi bilan ul-zoti shariflar sha`niga uluqvor yodgorliklar va jamqarmalar tuzishga imkon yaratildi. Jamqarmaning maqsadi Imom al Buxoriyning hayoti, ilmiy merosi, u yashagan davr fani va madaniyatiga oid bo`lgan tarixiy manbalarni o`rganishdan iboratdir.

Islom olami buyuk namoyondalarining to`y-tantanalarini nishonlanishi butun dunyo xalqlarining diqqat-e`tiborida bo`ldi. Ma`naviy merosning tiklanishi uning bir bo`lagi bo`lgan diniy qadriyatlarga ham e`tiborni kuchaytirdi. 1992 yil Prezident farmoni bilan Ramazon va qurbon hayit kunlari umumxalq bayrami deb e`lon

qilindi. «Movarounnahr» diniy boshqarmasining ham faoliyati Respublikamiz ayotida o`z o`rnini egalladi.

Xalqimizning asrlar davomida nishonlanib kelingan bayramlaridan «Navro`z» umumxalq bayrami sifatida qayta tiklandi. Jamiyat taraqqiyotida ro`y berayotgan o`zgarishlarni tushunish, hurfikrlikka intilish uchun kishilarni yangi yo`ldan olib boruvchi g`oyaviy qarashlar ham hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri bo`lib qolmoqda.

O`rta Osiyo, xususan, O`zbekiston hududida qadimdan boshlab ayniqsa astronomiya, matematika, tibbiyat, kimyo, me`morchilik, ma`danshunoslik, falsafa, musiqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik rivojlangan. g`ozirgi kunda O`zbekiston olimlari ota-bobolari yaratib ketgan ilmiy merosni chuqurroq o`rganib yanada boyitdilar. O`zbekiston olimlari o`z ilmiy asarlari va kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatiga munosib hissa qo`shtilar. Respublikamizda O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, qishloq xo`jalik fanlari akademiyasi, Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti, Islom tadqiqotlari markazi va boshqalar faoliyat ko`rsatmoqda. Nukus va Samarqandda O`zbekiston Recpublikasi FAning bo`limlari ochilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari xalq xo`jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko`rsatadigan ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy markazlari, shuningdek, universitetlar va boshqa oliy o`quv yurtlarida ham olib boriladi. Ilmiy kadrlar Fanlar akademiyalari tizimida ham, oliy o`quv yurtlari, xalq ta`limi tizimida ham tayyorlanadi. Faqat Oliy va O`rta maxsus ta`lim tizimidagi o`quv yurtlarida 600 dan ziyod fan doktorlari va deyarli 6 mingga yaqin fan nomzodlari o`qituvchilik va ilmiy faoliyat bilan shug`ullanadilar. O`zbekiston mustaqillikka erishganidan so`ng mamlakatda ilm-fanga alohida e`tibor berildi. Xalq xo`jaligi va madaniy hayotning tobora ortib borayotgan talablaridan orqada qolayotgan ilmiy tadqiqot institutlari tugatildi. Turmush taqozo etgan yangi institutlar ochildi. Respublikamiz Vazirlar Mahkamasining 1995 y. 3 apreliadi qarori bilan O`zbekiston Respublikasi FAning yangi Nizomi tasdiqlandi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 y. 8 iyuldagagi farmoni hamda uni amalga oshirish yuzasidan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «Fanlar rivojlanishini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash tadbirlari va innovatsiya faoliyati haqida»gi qarori mamlakatda fanni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo`ldi. Respublika olimlarini xorijiy mamlakatlarga tajriba oshirishga yuborishga alohida e`tibor berildi. Ilmiy echimlarni ichki va tashqi bozorda targ`ib etish va tarqatish, maqsadida FA negizida «o`zFANT» Respublika ilmiy ishlanmalari innovatsiya tijorat markazi tashkil etildi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasи huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi tashkil etilishi munosabati bilan FAning mavqeい ortdi. o`zbek olimlarining fan-texnika sohasidagi yutuqlari nafaqat O`zbekiston balki jahon hamjamiatida ham

tan olina boshlandi va ko`pchilik olimlarimiz davlatimiz mukofotlariga sazovor bo`ldilar va xorijiy davlatlar akademiyalariga haqiqiy ham faxriy a`zolikka saylandilar. O`zbekiston Respublikasining Fanlar Akademiyasi al-Xorazmiy nomidagi, Zahiriddin Muhammad Bobir nomidagi oltin medallarni ta`sis etdi. 1993 yilda O`zbekiston Respublikasi FAning akademigi g`F. Fozilov tabiiy va texnikaviy fanlar sohasida katta yutuqlarga erishgani uchun al-Xorazmiy nomidagi Oltin medalning birinchi sohibi bo`ldi. Zahiriddin Muhammad Bobir nomidagi Oltin medal birinchi bo`lib shu yili ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasida katta yutuqlarga erishgani uchun filologiya fanlari doktori O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining muxbir a`zosi U.I. Karimovga nasib etdi.

Mustaqillik o`zbek badiiy adabiyoti rivojida, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi bosqichni boshlab berdi. Asarlari zararli, o`zлari millatchi deb nohaq baholangan Cho`lpon, Otajon g`oshim, Vadud Mahmud, Munavvarqori singari millatparvar yozuvchi, ma`rifatparvarlar ijodi xolisona o`rganila boshlandi. Ularning asarlari chop etildi, sahna yuzini ko`rdi.

Jadidchilik harakatining asl mohiyatini, adabiy, madaniy, siyosiy hayotdagi o`rmini ro`yi-rost ko`rsatish boshlandi. Bir vaqtlar diniy va saroy adabiyoti vakili deb nohaq qoralangan Ahmad Yassaviy, Boqirg`oniy, g`azzoliy, g`oja Ahror, Bahouddin Naqshband, g`usayn Boyqaro, Feruz singari buyuk shoir va mutafakkirlar hayoti va ijodi o`rganilib, asarlari xalqqa qaytarildi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O`zbekiston tarixi –N.Jo'rayev, A.Zamonov
2. Shaxs va jamiyat-Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik – Sh.Azizov.
3. <https://kun.uz>